“TABIIY FANLAR”NI O‘QITISHDA INNOVATSION VA ELEKTRON TA’LIMIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

D.M. Elmuratova,
GulDPI dotsenti, p.f.f.d(PhD)
S.Sh.Karimova,
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi
e-mail: elmuratovadilrabo6@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqqola hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llash, an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarish, model asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-2-sinflarda “Tabiiy fanlar”ni o‘qitish jarayonidagi muhim vosita haqida so‘z boradi.

Abstract. This article focuses on the use of interactive methods and information technologies in the educational process. In traditional education, students are taught to acquire only ready-made knowledge, and the use of modern technologies improves their acquired knowledge. to search for, independently study and think, analyze, even draw the final conclusions by themselves, an important tool in the process of teaching "Natural Sciences" in the 1st-2nd grades of general secondary schools based on the model is talked about.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. Yuqorida tavsiya ətilgan model asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-2-sinflarda “Tabiiy fanlar”ni o‘qitish jaraënida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Model asosida “Tabiiy fanlar” mazmuni asosida o‘quvchilarning tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishni ma’lum ketma-ketlikda, bosqichma-bosqich tizim asosida foydalanish imkoniyatini yaratadi (2.3-rasmga qarang).

O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta’limda “Aqliy hujum”, “Fikrlar hujumi”, “Tarmoqlar” metodi, “Sinkveyn”, “BBB”, “Beshinchisi ortiqcha”, “6x6x6”, “Bahs-munozara”, “Rolli o‘yin”, FSMU, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Yumaloqlangan qor”, “Zigzag”, “Oxirgi so‘zni men aytay” kabi zamonaviy texnologiyalar qo‘llanmoqda.

Dars mashg‘ulotlarida o‘yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O‘yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o‘quvchilarining o‘yin-topshiriqlarni bajarishga o‘rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o‘rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog‘liq bo‘lishi kerak.

Ta’limda o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglash va shu fikrni og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o‘rgatish masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o‘rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o‘rganiladi.

Bugungi kun o‘qituvchidan ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg‘ulotlarida interfaol metodlarni qo‘llash orqali ta’lim-tarbiya berish yo‘llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim berishda, darslik va ko‘rgazma materiallar bilan bir qatorda elektron resurslar bilan ishlash o‘quvchiga ancha qulaylik tug‘diradi, ya’ni ularda o‘quvchilar faoliyatini yo‘naltiruvchi, tizimga soluvchi ko‘rsatmalar va topshiriqlar mavjud, asosiysi bajargan harakatini to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi haqida darhol ma’lumot oladi. Esda saqlab qolish maqsadida o‘qituvchi turli ma’lumotlarni o‘zlashtirish haqida o‘quvchilarga tavsiyalar beradi, xotirani rivojlantirishni doimiy nazorat qilib turadi, uni takomillashtirishga yordam beradi. Elektron darslik yoki qo‘llanma bilan ishlash o‘quvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.


Mazkur ishlarni o‘rganish va tadqiq qilish doirasida o‘quvchilarni tabiatni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishda bevosita raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishga e’tibor qaratildi. Maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, 1-2-sinflar uchun elektron dasturiy platforma ishlab chiqildi. Undan foydalanish mexanizmi https://tabiiy.yoshavlod.uz/1-sinf-uchun/1-bob/ sayti kirish va uni bosqichma-bosqich faoliyatini bajarib borish nazarda tutiladi.



Uzluksiz ta’lim tizimida raqamli va innovatsion texnologiyalarning dolzarb muammolari

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ko‘pgina predmetlari uchun multimedia vositalari yaratilgan bo‘lib, endilikda o‘quv jarayonini kompyuterlashgan muhitda tashkil etishga bo‘lgan e’tibor ancha rivojlandi. O‘rgatuvchi-dasturiy vositalar hozirgi kunda ko‘pgina fanlarni qamrab olmoqda.

Mazkur eletron dasturiy material boshlang‘ich sinflarning 1-va 2-sinflaridagi “Tabiiy fanlar” fani uchun tayyorlangan bo’lib, undagi tavsiya etilgan o’quv jarayoniga xizmat qiluvchi dasturiy materiallar o’quvchilarning fanni o’zlashtirishlari uchun asosiy yordamchi vositalardan biri bo’lib xizmat qiladi. Unda alohida holatda o’quvchilar uchun bir necha bloklarga bo’lingan vazifalar berilgan bo’lib, dars jarayonida, darsdan tashqari holatlarda ham bemalol foydalanish imkoniyati yaratiladi.



O‘ylaymizki, u o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilarni o‘z yo‘nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirishdek mas’uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko‘makchilardan biriga aylanadi.

Elektron dasturiy vositalar mazmunida videomateriallar ham tayyorlangan bo‘lib, ular tabiat va inson bilan bog‘liq voqea hodisalarni bir necha videovositalar asosidagi ma’lumotlari ham ilova qilingan.

Bundan tashqari o‘quvchilarni kichik guruhlardagi faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida didaktik materiallar ham berilgan. Ular dars jarayonida o‘quvchilarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni o‘quv fanlarini o‘zlashtirishlari uchun darslik va qo‘llanmalar bilan bir qatorda tavsiya etilgan va bevosita tayyorlangan mazkur elektron ta’limiy vositalar ularni fanga qiziqtirib qo‘ymasdan, ularni darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni mustaqil ishlash imkonini berishi bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bahromov A., Sharipov Sh., Nabieva M. Tabiatshunoslik: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. 5-nashr. – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2016. – 128 B. 115-116 betlar.

2. Shirinov M.K. Interaktiv metodlarning tabiatshunoslik fanida qo‘llanilishi // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2013. – № 3. – B. 46-49.

3. Suyarov K.T. O‘quvchilarda o‘quv-tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari // Xalq ta’limi. - 2018. - № 6. – B.27-32.